

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT VILOYATI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**



“TASDIQLAYMAN”
Toshkent viloyati CHDP
rektori G.I. Muxamedov
“ ” 2022 yil

**KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR DASTURI VA
BAHOLASH MEZONI
(Kunduzgi, kechki va sirtqi bo‘lim uchun)**

**TASVIRIY SAN‘AT (rangtasvir) va CHIZMACHILIK
fanlari**

**60111200 – “Tasviriy san‘at va muhandislik grafikasi”
bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi uchun**

CHIRCHIQ – 2022

Dastur Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti o'quv-uslubiy Kengashida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan. 2022- yil _____-sonli majlis bayoni.

Tuzuvchilar:

CHDPI "Tasviriy san'at" kafedrası mudiri, dotsent X.E.Sultanov

CHDPI "Tasviriy san'at" kafedrası, dotsent v.b. X.X.Muratov

CHDPI "Tasviriy san'at" kafedrası, katta o'qıtuvchısı N.N.Achilov

CHDPI "Tasviriy san'at" kafedrası, o'qıtuvchısı Q.Sh.Bekqulov

Taqrizchilar:

TDPU "Tasviriy san'at" kafedrası mudiri, dotsent R.Sh.Xalilov

TDPU "Muhandislik va kompyuter grafikasi" dotsenti, t.f.n., P.A.Adilov

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti "Tasviriy san'at" kafedrası mudiri:

202__yil "___" "___"



dotsent X.E.Sultanov

Kirish

O'zbekiston Respublikası Prezidentining "Respublika oliy ta'lim muassasalari bakalavriatiga kirish test sinovlarini o'tkazish tartibini takomillashtirish to'g'risida" 2017-yil 16-noyabrdağı PQ-3389-son qarori va Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 3-apreldağı "Oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish tartibini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 261-son qaroriga muvofiq ushbu dastur ishlab chiqilgan.

"60111200-Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihon dasturi kasb-hunar maktablari hamda umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi tasviriy san'at va chizmachilik fanlari dasturi asosida tuzilgan bo'lib, abituriyentlarning amaliy ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun mo'ljallangan. 60111200-"Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" bakalavriat ta'lim yo'nalishiga hujjat topshirgan abituriyentlar kasbiy (ijodiy) imtihonda tasviriy san'at asosi bo'lgan **rangtasvir** va **chizmachilik** fanlaridan amaliy ish bajarib, o'zlarining bilimlarini namoyon etadilar. Bajariladigan amaliy ishlar tasdiqlangan mezon asosida baholanadi.

II. Fanning maqsadi va vazifalari

60111200-Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'qıtuvchilar tayyorlash bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlar abituriyentlarning tasviriy san'at va chizmachilik sohasida nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olishi bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Abituriyentlar ixtisoslikning quyidagi asosiy fanlaridan amaliy-ijodiy, grafik ishlar bajaradilar:

1. Tasviriy san'at (rangtasvir). Tasviriy san'at nazariyasi asosida natyurmortning o'zaro nisbati, perspektivasi qonuniyatlari, kompozitsiya tuzilishi, yorug' va soya tushunchalari negizida gipsli geometrik jism, uy-ro'zg'or buyumlari, meva va sabzavotlar sidirg'a mato fonida o'ziga qarab tasviri qalamda bajariladi.

2. Chizmachilik. Chizmachilik fanidagi vazifalar O'zDStga rioya qilgan holda bajariladi. Buyumning berilgan ikki proyeksiyasiga asosan yetishmovchi proyeksiyasini topish, kerakli qirqimlari bilan A3 formatda qalamda amaliy ish bajaradi.

III. Abituriyent bilimiga qo'yiladigan talablar

1. Abituriyentdan rangtasvir fanidan natyurmortni qog'ozga to'g'ri joylashtirishi, ufq chizig'i, buyumlarning o'zaro nisbatini, buyumlarning tayanch nuqtalarini to'g'ri topishi, narsalar tekisligini to'g'ri aniqlay olishi, naturadagi buyum hajmlarini to'g'ri aks ettira bilishi, perspektiva qonuniyatlariga rioya qilishi, buyumlardagi soya va yorug'larni to'g'ri aniqlay olishi hamda buyumlarning fakturasini (gips, sopol, metall, mato va hokazolar) topishi talab etiladi.

2. Abituriyentdan chizmachilik fanidan berilgan ikki proyeksiyani to'g'ri ko'chirishi, masshtabni to'g'ri tanlashi, yetishmovchi proyeksiyani to'g'ri topishi, qirqimlarni to'g'ri bajarishi, chizmalarda chiziq turlariga, o'lchamlar qo'yishda qoidaga rioya qilishi, chizmalarni A3 formatga to'g'ri joylashtira bilishi va ishni sifatli bajarishi talab etiladi.

Abituriyent jadval bo'yicha belgilangan kunda har bir fanga 1,5 astronomik soat (90 daqiqa) vaqt davomida grafik ish bajaradi. Tasviriy san'at (rangtasvir) va chizmachilik fanlari bo'yicha bajariladigan ish qog'ozining o'lchami A3 formatda bo'ladi.

Bu ishlarni baholash quyidagi tartibda amalga oshiriladi: Tasviriy san'at (rangtasvir)dan bajarilgan har bir ishga 10 ta savol, chizmachilikdan 9 ta savol qo'yiladi va bu savollarga sinov o'tkazuvchi komissiya a'zolari bajarilgan ishning hajmi va sifatiga qarab ball qo'yadilar. Har bir fan bo'yicha ballar qaydnomaga yoziladi va umumlashtiriladi.

Mazkur yo'nalishda kasbiy (ijodiy) imtihonlar uchun qo'yiladigan maksimal ball - 156 ni tashkil etadi,

Tasviriy san'at (rangtasvir) - 78,0 ball

Chizmachilik - 78,0 ball

Rangtasvir

| № | Savollar mazmuni | To'liq javob uchun ball |
|----|---|-------------------------|
| 1 | Natyurmort qog'ozga to'g'ri joylashtirilgan. Ufq chizig'i to'g'ri | 0-7 gacha |
| 2 | Gorizont chizig'ining to'g'ri topilgani | 0-7 gacha |
| 3 | Buyumlarning o'zaro nisbati to'g'ri topilgan. | 0-7 gacha |
| 4 | Buyumlarning tayanch nuqtalarining to'g'ri topilganligi | 0-7 gacha |
| 5 | Narsalarning tekisligi to'g'ri aniqlanganligi | 0-7 gacha |
| 6 | Perspektiva qonuniyatlariga to'g'ri rioya qilingan | 0-7 gacha |
| 7 | Buyumlardagi soya va yorug'lar to'g'ri aniqlanganligi. Akvarel bo'yog'i texnikasidan to'g'ri foydalanganligi. | 0-9 gacha |
| 8 | Buyumlarning fakturasi (gips, sopol, metall, mato, va hokazolar) topilgan. | 0-9 gacha |
| 9 | Ishni umumlashtirilganligi. | 0-9 gacha |
| 10 | Qo'yilgan vazifa to'liq bajarilgan. | 0-9 gacha |

Rangtasvir bo'yicha abituriyentlarning to'plashi mumkin bo'lgan maksimal ballarning umumiy miqdori – **78 ball**

Chizmachilik

| № | Savollar mazmuni | To'liq javob uchun ball |
|---|--|-------------------------|
| 1 | Berilgan ikki proyeksiya to'g'ri ko'chirilgan | 0-8 gacha |
| 2 | Masshtab to'g'ri tanlangan | 0-8 gacha |
| 3 | Yetishmovchi profil proyeksiya to'g'ri topilgan | 0-9 gacha |
| 4 | Qirqim turi to'g'ri tanlangan | 0-8 gacha |
| 5 | Qirqim to'g'ri bajarilgan | 0-9 gacha |
| 6 | Chizmada chiziq turlariga rioya qilingan | 0-9 gacha |
| 7 | O'lcham qo'yish qoidalariga rioya qilingan | 0-9 gacha |
| 8 | Chizma A3 formatga to'g'ri joylashtirilgan va sifatli bajarilgan | 0-9 gacha |
| 9 | Chizmada shartlilik va soddalashtirishlarga amal qilingan | 0-9 gacha |

Chizmachilik bo'yicha abituriyentlarning to'plashi mumkin bo'lgan maksimal ball - **78,0 ball**

V. Kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o'tkazish tartibi

60111200-Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi bakalavriat ta'lim yo'nalishiga hujjat topshirgan abituriyent jadval asosida belgilangan kunda, har bir fandan 1,5 astronomik soat vaqt davomida chizmachilik fanidan grafik ish va tasviriy san'at (rangtasvir) fanlaridan natyurmort qo'yilmasini bajaradilar. Qabul komissiyasi tomonidan shakllantirilgan guruhlar 20-30 nafar abituriyentlardan iborat bo'lib, kasbiy (ijodiy) imtihon guruhlar bo'yicha o'tkaziladi. Kasbiy (ijodiy) imtihonlar molbert va planshetlar bilan jihozlangan tasviriy san'at (rangtasvir) va chizmachilik xonalarida o'tkaziladi.

Tasviriy san'at (rangtasvir). Tasviriy san'at nazariyasi asosida natyurmortning o'zaro nisbati, kuzatish perspektivasi qonuniyatlari, kompozitsiya tuzilishi, yorug' va soya tushunchalari negizida gipsli geometrik jism, uy-ro'zg'or buyumlari, meva va sabzavotlar sidirg'a mato fonida o'ziga qarab tasviri rangda bajariladi.

Chizmachilik. Chizmachilik fanidagi vazifalar O'zDStga rioya qilgan holda bajariladi. Buyumning berilgan ikki proyeksiyasiga asosan yetishmovchi proyeksiyasini topish, kerakli qirqimlari bilan A3 formatda qalamda amaliy ish bajaradi.

Bu ishlarni baholash quyidagi tartibda amalga oshiriladi: Tasviriy san'at (rangtasvir) fani bo'yicha ish to'liq va to'g'ri bajarilgan bo'lsa, 0 balldan 9 ballgacha, chizmachilik fanidan ish to'liq va to'g'ri bajarilgan bo'lsa, 0 balldan 9 ballgacha belgilanadi.

Fan bo'yicha sinov o'tkazuvchi komissiya a'zolaridan tashkil etadi va ular shu ta'lim yo'nalishiga kadrlar tayyorlovchi kafedralar professor-o'qituvchilari tarkibidan jalb etiladi.

VI. Apellyatsiya tartibi

Abituriyentlar tomonidan kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari bo'yicha oliy ta'lim muassasi qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hay'atiga natijalar e'lon qilingandan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin.

Murojaat mazmunida faqat o'zining ballari haqida bo'lsa qabul qilinadi, lekin boshqa abituriyentlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.

